

## TA'LIM TARBIYA JARAYONIDA INTERFAOL MEDOTLARDAN FOYDALANISH

**Bozorova Ro'zigul**

*Osiyo Xalqaro Universiteti Tarix va filologiya kafedrasida dotsenti*

**Safiyeva Shohista Shuhrat qizi**

*Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi Magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'lim va tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning o'rni va ahamiyati haqidagi fikrlar bayon qilingan. Ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, axborot-texnologiyalari yordamida bilim olishni rivojlantirishi haqida ham qisqacha tushunchalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *interfaol metod, ta'lim jarayoni, multimedia, elektron darslik, elektron taqdimot.*

### **Kirish**

Ta'lim jarayonida interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning, qiziqishini o'ttirish, ularning ta'lim jarayonidagi faolligini mutassil rag'batlantirib borishilishi, o'quv materiallarini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, baxs-munozara, muammoli vaziyat yaratib, yo'naltiruvchi matn, loyiha, ro'lli o'yinlar kabi metodlarni qollash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interfaol metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayoning markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.<sup>1</sup>

Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari ortirilgan bilimlarni ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyating qo'llab quvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki tarablama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.<sup>1</sup>

### **Asosiy qism**

<sup>1</sup> Interfaol ta'lim metodlarining psixologik asoslari uslubiy qo'llanma SamDU nashr-2015 A.Saidov

Interfaol ta'lim (lot. "internus" – ichki, o'zaro) – o'quvchi (magistr)larning bilim, ko'nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim. Interfaol metodlarining mohiyatidan xabardor bo'lishda, eng avvalo, tayanch tushuncha – "interfaol" atamasining lug'aviy ma'nosi "interfaol" (ing. "interact"; "interaktiv"; "inter" – o'zaro, birgalikda, "act" – harakat qilmoq, ish ko'rmoq) tushunchasi "o'zaro, birgalikda harakat qilmoq" ma'nosini anglatadi.

Interfaollik – ta'lim jarayoning ishtirokchilarning bilim, ko'nikma, malaka, muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaligi.

O'qitishning interfaol ta'limga asoslanish bir qarashda nihoyatda oddiy, soda va hatto "bolalar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi. Biroq ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashga nisbatan bunday yondashish to'g'ri emas. Zero, ta'lim amaliyotida interfaol metodlarni qo'llash muayyan shartlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Interfaol ta'lim qo'yidagilarga asoslaniladi:

Mashg'ulot-ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.

Guruhning tajribasi pedagog (Pedagog)ning tajribasidan ko'p.

Talabalar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng.

Har bir talaba o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish xuquqiga ega.

Mashg'ulotda ta'laba shaxsi tanqid qilinmaydi (fikir tanqid qilinishi mumkin).

Bildirilgan g'oyalar talabalarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi.

Interfaol metodlarni qo'llashning muayyan shartlarini asoslash ularning didaktik qiymatini oshiradi.

**Ta'limni tashkil etishda interfaol yondashuvni qaror toptirish ( interfaol ta'limni tashkil etish) uchun pedagoglar quyidagi shartlarga rioya eta olishi zarur:**

-ta'lim jaayoniga jamoadagi barcha magistrning to'la qamrab olinishi;

-magistrning mashg'ulotlariga ruhan tayyorgarliklarini inobatga olish;

-magistr soni ko'p bo'lmasligi (25-30 nafar magistr bilan kichik guruhlarda ishlash samarali);

-o'quv xonasining jixozlanishi ( stellar doira, archa, "jonli liniya" kabi shakllarda joylashtiriladi);

-topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarning ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi;

-magistrning kichik guruhlarga mohirona birlashtirilishi (har bir guruhda faol va nafaol magistrning teng miqdorda bo'linishi).

Interfaol o'qitish "ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari - pedagog, magistr va magistr guruh o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-

munozaralar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda magistrning o'zaro yaqinliklarni yuzaga keltirish, "pedagog - magistr - magistrlar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llabquvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi"

Pedagog ta'lim jarayonida interfaol ta'lim yordamida magistrning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish. samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish. o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish. muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo'llash orqali pedagog magistrning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarni tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish. nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

**Interfaol metodlar** — ta'lim jarayonida talabalar hamda pedagog o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li - mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Shunga ko'ra interfaol metodlar XXI asr ta'limida o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini ta'minlashning muhim vositalaridan biri sanaladi. Manbalarni o'rganish ta'lim tizimida interfaol metodlar ilk bor XX asrning 20-yillarida qo'llanilganligidan dalolat beradi. V.A.Suxomlinskiy tomonidan o'tgan asrning 60-yillariida yaratilgan ilmiy ishlarda ham ta'lim tizimiga interfaol metodlarni tatbiq etish tajribasini uchratish mumkin.<sup>2</sup>

XX asrning 70-80-yillarida esa Rossiyada Sh.A.Amonashvili, V.F.Shatalova, Ye.N.Ilina va b. tomonidan ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarda o'qitishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish yo'llarini topish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham interfaol metodlarning amaliy ahamiyati, ularning samarali qo'llash shartlari to'g'risida so'z yuritilgan.

"Interfaol metodlar tavsifida magistrning birgalikda, o'zaro hamkorlikda yuqori darajada ta'lim olishlarini ta'minlashga yo'naltirilganlik, ular o'rtasida hissiy, ruhiy va axloqiy birlikni qaror toptirish g'oyalari yetakchi o'rin tutadi."<sup>2</sup>

Talabalar bilan yangi mavzuni o'rganishga kirishar ekan, oliy o'quv yurti o'qituvchisi oldida har doim savol tug'iladi: metod qanday tanlanadi, qaysi didaktik

<sup>2</sup> O'tkir Tolipov, Dilnoz Ro'ziyeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat-Toshkent "Innovatsiya-Ziyo"-2019-149 bet

materiallardan foydalanish kerak, o'quv vazifalarini qaysi usullar bilan samarali yechish mumkinmi? Har bir mashg'ulot turining pedagogik maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi o'zining intellektual salohiyatini safarbar etish, ilg'or pedagogik tajribadan foydalanishi va nihoyat, metodni tanlash haqiqiy ijodiy aktga aylanishi lozim. Umumiy holda metodning tanlanishi ta'lim va tarbiyaning didaktik maqsadlari bilan aniqlanadi. Biroq turli xil pedagogik vaziyatlarda o'qituvchi va talabalar o'rtasida faoliyat turlari o'zgarib, o'zaro almashinib turadi. Tabiiyki, bu faoliyat turlariga mos holda o'qitish metodlari ham o'zaro solishtiriladi.

O'qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rishida metodlar va metodik usullarni tanlash – bu ularning o'zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo'yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida talabalar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta'minlashga sharoit yaratiladi. To'g'ri qo'llanilgan metodlar ob'ektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg'ulotning ilmiy- nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o'qitish metodlari ma'lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga , mustaqil amaliy faoliyatni faollashtirishga olib keladi.

Ta'lim mazmunining interfaol metodlar bilan aloqasi. Shunday qilib, biz o'qitish metodlarini tanlashni takomillashtirishning birinchi muhim shartini ularni tizimlashni, o'quv jarayonini rejalashtirish muolajalar amaliyotida qo'llash bilan bog'liqlikni aniqlashtiradigan yaxlit yondashuvni tavsifladik.

Pedagogikada an'anaviy metodlarni tanlash mezonlari katta miqdorda ishlab chiqilgan , keyingi yillarda didaktik olimlarning ishlarida ularning yigirmadan ortig'i keltiriladi .

Interfaol metodlarni tanlash mezonlari – ularning ta'lim va tarbiyani rivojlantirish masalarni yechishga yuqori yo'nalganligidir. Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yo'li

bilan joriy etiladi, chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o'zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir .

Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezonlari ularning ta'lim mazmuni xususiyatiga mos kelishdir.

Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu boisdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobiy o'zlashtirishga imkon tug'diradi.

Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezonlari ularning talabalar o'quv imkoniyatlariga to'liq mos kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart- sharoitlarining birligini ta'minlashdir .

Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitish jarayonining qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta'lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi.

Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi-ularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir. O'qitishning yalpi, guruhli va individual shakllari turlicha metodlarni talab etadi. Misol uchun debat metodi ikki talaba o'rtasidagi bahs hisoblansa, "aqliy hujumda" guruhdagi barcha talabalarning ishtiroki zarur bo'ladi.

Ta'limning umumiy maqsadidan kelib chiqib o'qitishning ayni bosqichidagi tarbiyaviy va rivojlantiruvchi masalarni yechish zaruratni hisobga olgan holda ajratilgan variant tahlillanadi va baholanadi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malaka darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatiga ega ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

"Fikriy hujum" metodi o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabli bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

"Fikriy hujum" metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rta tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va mufaffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soatga qadar tashkil etilishi mumkin.

“Yalpi fikriy hujum” metodi J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo’lib, uni bir necha o’n nafar o’quvchilardan iborat sinflarda qo’llash mumkin.

Metod o’quvchilar tomonidan yangi g’oyalarning o’rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar o’quvchilarni o’z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo’lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a’zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot o’qituvchi va boshqa guruhlar a’zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg’ulot yakunida o’qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o’ziga xos deb topilgan javoblarni e’lon qiladi. Mashg’ulot jarayonida guruh a’zolarining faoiyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko’ra baholab boriladi.<sup>3</sup>

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta’lim bir vaqtda bir necha masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o’quvchilarning muloqot olib borish bo’yicha ko’nikma va malakalarini rivojlantiradi, o’quvchilar orasida emotsional aloqalar o’rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o’z o’rtoqlarining fikrini tinglashga o’rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, amaliyotdan ma’lum bo’lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo’llash o’quvchilarning asabiy zo’riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Interfaol ta’lim metodlarining psixologik asoslari uslubiy qo’llanma SamDU nashr-2015 A.Saidov
2. O’tkir Tolipov, Dilnoz Ro’ziyeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat-Toshkent “Innovatsiya-Ziyo”-2019-149 bet
3. [www.Ziyo.uz](http://www.Ziyo.uz)